

HARBIY XIZMATCHILARDA KASBIY DEFORMATSIYANI OLDINI OLISHGA QARATILGAN RUHIY BARQARORLIK MODELI

Zulunov Muhammadzar Zokirjon o‘g‘li
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi
universiteti magistri., mayor

Annotatsiya: Ushbu maqolada harbiy xizmatchilar o‘z kasbini egallash jarayonida yuzaga keladiigan kasbiy deformatsiya atroficha o‘rganilib, tadqiqot natijalari keltirilgan kasbiy deformatsiyalarni kamaytirish uchun ishlab chiqilgan tavsiyalar, barqaror axloqiy-ruhiy holat hamda shaxsiy tarkibning g‘alabaga

bo‘lgan mustahkam ishonchini taminlash bo‘yicha taklif va xulosalar berilgan.

Kalit so‘zlar. Harbiy xizmatchilar, deformatsiya, jarayon, faoliyat, kasbiy faoliyat, destruktsiya, idrok stereotipi, qadriyatlar orientatsiyasi, xarakter, munosabatlar.

МОДЕЛЬ ПСИХИЧЕСКОЙ СТАБИЛЬНОСТИ ДЛЯ ПРОФИЛАКТИКИ ПРОФЕССИОНАЛЬНЫХ ДЕФОРМАЦИЙ У ВОЕННОСЛУЖАЩИХ

Аннотация: В этой статье тщательно изучается профессиональная деформация, которая происходит в процессе получения профессии военнослужащих для победы, предложения и выводы о обеспечении сильного доверия

Ключевые слова. Военнослужащие, деформация, процесс, деятельность, профессиональная деятельность, разрушение, стереотип восприятия, ориентация на стоимость, характер, отношения.

MODEL OF MENTAL STABILITY FOR PREVENTION OF PROFESSIONAL DEFORMATIONS IN MILITARY SERVICEMEN

Abstract: In this article, the professional deformation that occurs in the process of acquiring the profession of military personnel is thoroughly studied, the research results are presented, recommendations are made to reduce professional deformations, a stable moral and spiritual state and personal content are necessary for victory.

Keywords. Military personnel, deformation, process, activity, professional activity, destruction, stereotype of perception, orientation to value, character, relationships.

Har qanday kasbiy faoliyatning kechishi jarayoni xodimga zavq-shavq keltirishi, ko‘tarinki ruh bag‘ishlashi bilan birga unda ruhiy, jismoniy, aqliy

jihatdan salbiy ta’sir etadigan holatlar uchrab turadi. Bunda ko‘proq salbiy

ko‘rinish oladigan holat—emotsional toliqish holati. Bunday holatni fanda kasbiy deformatsiya deb atash qabul qilingan. Kasbiy deformatsiyaning harbiy xizmatchilarda namoyon bo‘lishi ochiq yoki yopiq holatda namoyon bo‘ladi,

ya’ni ochiq holat harbiy xizmatchilarning xizmat jarayonidagi xatti-harakatlarida, ijtimoiy-huquqiy munosabatlarda, eng asosiysi, xizmatga munosabatlarining natijalarida ko‘rinadi. Yopiq holatda kasbiy deformatsiyaning namoyon bo‘lishi, eng avvalo, ijtimoiy-huquqiy, kasbiy munosabatlarga kirishishda namoyon bo‘lishi bilan birga, qo‘yilgan vazifalarni bajarishdagi xatti-harakatlarida ham namoyon bo‘lib bordi.

Kasbiy deformatsiyaning yuzaga kelishi harbiy xizmatchilarning kasbiy fikrlashida ham o‘zgarishlar mavjudligini, ularning faoliyatini bevosita kuzatishlarimiz natijasida ko‘rildi, ya’ni asab jarayonidagi rigidlikda, unga nisabatan muntazam ravishda qo’llab-quvvatlov, hamkasblarini ortiqcha masxara qilish, o‘zining shaxsiy menligini yuqori qo‘yish, shuningdek, umummiy yig‘ilishlarda berilgan tanbexlardan o‘ziga tegishli deb o‘ylab, yig‘ilish raisiga keskin tanqidiy ruhda fikr yuritish, norozi kayfiyatini namoyish qilish, jamoadoshlari orasida noto‘g‘ri ashviqot yuritish kabi salbiy emotsiyal xis-tuyg’ularida namoyon bo‘ladi.

Ayniqsa, turli ijtimoiy tadbirdarga jalb qilinishida yuz beradigan har xil vaziyatlarni nima bilan tugashini bilmaslik ham harbiy xizmatchilarning asta-sekinlik bilan kasbiy buzilishiga o‘z hissasini, ta’sirini ko‘rsatib boradi. Demak, bir qancha kasbiy, kerak bo‘lsa, shaxsiy, oilaviy salbiy omillarning ta’siri shaxsiy kasbiy deformatsiyaning yuzaga kelishiga zamin yaratadi. Undan tashqari, kerak bo‘lsa, boshliqning rahbarlikdagi nokompetentligi ham harbiy xizmatchining xizmatga bo‘lgan munosabatini sovutadi, xizmatga sovuqqonlik bilan qarash esa javobgarlikdan tashqari harbiy xizmatchida kasbiy deformatsiyaga olib keladi.

Ushbu maqolada, yuqoridagi holatlarni oldini olishga qaratilgan ilmiy-tadqiqot tekshiruvlar va ularning nazariy va amaliy tahlili, taklif va tavsiyalar berilgan.

Harbiy qism muassasalari rahbarlari, shu jumladan amaliy psixologlar o‘z ish faoliyatları davomida ko‘pincha kasbiy deformatsiyani yuzaga chiqaruvchi, shaxsga ta’sir etuvchi kasbiy faoliyatlar mexanizmlarini aniqlashda, harbiy xizmatchilarni dastlabki baholash muammolariga duch keladilar. Chunki, rahbarlar o‘zi rahbarlik qilayotgan harbiy qismlarda kadrlar bazasini yaratishda qo‘l ostidagi xodimlarning tipik deformatsiyasini bilmasdan turib uni biror ishga tavsiya qilishda muammoga duch kelishi tabiiy.

• Avvalo biz kasbiy destruktsiya va deformatsiya so‘zlarini farqlab olmog‘imiz lozim.

Kasbiy destruktsiya	Kasbiy deformatsiya
<input type="checkbox"/> insonnii va faoliyat tuzilmasini o‘zgarishi bo‘lib, mehnatni unumdarligi va mana shu jarayonning ishtirokchilariga munosabatdir	<input checked="" type="checkbox"/> bir muddat davomida bir xil kasbiy faoliyat bilan shug‘ullanishda shaxs xususiyatlarining o‘zgarishidir
<input type="checkbox"/> o‘zini xizmat faoliyatidan doimo qoniqmaslik	<input checked="" type="checkbox"/> Bu shaxsiy xususiyatlarni o‘zgarishi bo‘lib, kasbiy majburiyatlarni bajarish davomida kasbiy xulq-atvor, gapirish usuli hamda harakatlarida ko‘zga tashlanadi
	<input checked="" type="checkbox"/> xizmat faoliyatini asosiy vazifa deb qaramaslik holatlari ko‘rinadi

Kasbiy faoliyat va individual xulq-atvor inson o‘zi shug‘ullanayotgan kasbi uchun ahamiyatli fazilatlarning darajasini o‘zgartirib yuboradiki, bu faoliyat sifatini o‘zgarishiga negativ ta’sir ko‘rsatadi. Kasbiy faoliyatning o‘ziga xos xususiyatlari o‘z navbatida ma’lum bir sharaitlarda insonning ruhiy tizimiga deformatsiya qilish orqali negativ ta’sirini ko‘rsatishi mumkin. Shuni nazarda tutish lozimki har bir kasbni o‘z stressorlari va travmatik alomatlari mavjud. «Kasbiy deformatsiya» terminini Pitirim Sorokin tomonidan qo‘llanilgan bo‘lib, kasbiy faoliyatni inson ruhiyatiga negativ ta’siri deb ta’riflangan.



Aytilgan fikrlarga harbiy xizmatning xususiyatlaridan kelib chiqib yondashiladigan bo‘lsa, yuqorida keltirilganlardan tashqari harbiy xizmatchining kasbiy deformatsiyasini rivojlantiruvchi va kuchaytiruvchi qo‘sishimcha omillar mavjud. Bular:

- 1.Umumharbiy nizomlarda belgilangan qat’iy shaxslararo o‘zaro munosabatlari.
- 2.Boshliq-bo‘ysunuvchi, lavozim yoki harbiy unvon bo‘yicha katta–kichik munosabatlari.
- 3.Yakkaboshchilik prinsipining ustuvorligi.
- 4.Qat’iy subordinatsiya.
- 5.Tezkor qarorlar qabul qilish va harakatlar zarurati.
- 6.Pedagogik faoliyat bilan harbiy xizmat majburiyatlarining uyg‘unligi.
- 7.O‘qish va xizmat faoliyatining sog‘liq va hayot uchun xavfli sharoitlarining mavjudligi.
- 7.Doimiy jangovar shaylik holatidagi faoliyat.
- 8.O‘quv faoliyatidan tashqari o‘qituvchilar va ta’lim oluvchilarning xizmat vazifalarini bajarish, yuzaga kelgan favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish,

jangovar topshiriqlarni bajarish kabi rejalashtirilmagan tadbirlarda ishtirok etish va boshqalar. Ana shunday omillarning barchasi pedagogning ruhiy va jismoniy holati, irodaviy turg‘unligi, kayfiyati va boshqa ko‘plab jihatlariga ta’sir etadiki, inson ba’zida keragidan ortiq zo‘riqishga duch kelishi, stress holatiga tushib qolishi, kasbiy tanloving to‘g‘ri amalga oshirilganligiga shubhalanib qolishi, tezkor noo‘rin qarorlar qabul qilib qo‘yishi mumkin.



Kasbiy deformatsiyani bartaraf etish uchun quyidagi psixoprofilaktika ishlarini amalga oshirish tavsiya qilinadi.

1.Ma'lumotli-asosiy maqsad kasbiy yangiliklar haqida ma'lumotlar bazasini shakllantirish.

2.Tashkiliy-turli ta'lim muassasalaridagi ishning to'g'ri taqsimlanishi.

3.Adaptiv psixoprofilaktika-shaxsning kasbiy moslashuvi, ya'ni pedagogik jamoaga moslashuvini o'z ichiga qamrab oladi.

4.Harbiy xizmatchilarni depressiyani oldini olishga qaratilgan profilaktik ishlar.

5.Pedagogik jamoadagi hamkorlik buzilganda, nizolar yuzaga kelganda olib boriladigan korreksion profilaktika.

6.Kasbiy reabilitatsiya.

7.Shaxsdagi kasbiy yo'nalgalikni oshirishga qaratilgan manipulyativ profilaktika

V.V.Gafner kasbiy deformatsiyaga uchragan pedagogi kasbiy reabilitatsiya qilishning quyidagi yo'llarini tavsiya qiladi:

1.Pedagogning umumpedagogik, kasbiy, psixologik, fan bo'yicha kompetentligini oshirish.

2.Kasbiy deformatsiyasini diagnostika qilish va kasbiy destruksiyani yengib o'tish strategiyasini ishlab chiqish.

3.Shaxsiy va kasbiy rivojlanish treninglarini o'tkazish.

4.Kasbiy biografiyasi refleksiyasi va keyingi shaxsiy va kasbiy rivojlanishning muqobil ssenariylarini ishlab chiqish.

5.Boshlovchi pedagogning kasbiy dezadaptatsiyasining oldini olish.

6.Pedagogning o'zining hissiy-irodaviy sohasini boshqarish va kasbiy deformatsiyasini tuzatish usullarini egallashiga yo'naltirish.

7.Ta'limning innovatsion shakllari va texnologiyalarini o'zlashtirish.

8.O'qituvchilar o'rtasida ko'riklar, olimpiadalar, kasbiy yutuqlar tanlovi kabi tadbirlarni o'tkazish.

9.Yangi, qo'shimcha o'quv fanlarini o'zlashtirish va fakultativ sifatida o'tkazish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasining Milliy gvardiyasi to'g'risidagi qonuni. 2020-yil 18-noyabrdagi O'RQ-647-son.

2. Mirziyoyev Sh.M: 2023-yil 13-yanvardagi "Vatan himoyachilari" kuni va O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilganligining 31 yilligi munosabati bilan, Vatan himoyachilarga bayram tabrige.

3. G‘oziyev E. Psixologiya. T., “O‘qituvchi”, 1994
4. Beznosov S.R. Professionaldaya deformatsiya. Sankt-Peterburg: 2004.
5. Xalperi D. Psixologiya kriticheskogo mishleniya. Piter: 2000.
6. Volkov B.S.. Kasbiy yo‘naltirish asoslari. Moskva: ilmiy loyiha, “MIR” jamg‘armasi 2007-yil.
7. Маркова А.К. “Психология профессионализма”/ М.: Международный гуманитарный фонд “Знание” 1996. 312 s.
8. www.expert.psychology.ru